

Ona yurti - oltin beshiging

# TONG Yulduzi

№12 (66397)  
2003 yil  
24 mart  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi  
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarib boshlagan.

## NAVRO'ZNING YOSHI NECHADA?

Yoshu qarining sevimli

bayrami bo'lmish Navro'zning tarixi juda uzoq yillarga borib taqaladi. Ilk marotaba Navro'z haqida Aburayhon Beruniy va Umar Hayyomlarning asarlarida (973-1054) so'z boradi. Ushbu ayyom birinchi bo'lib Eron shohi Jamshid tomonidan joriy etilganligi bizga tarixdan ma'lum. Shu kuni urush va nizolar to'xtatilib, odamlar sumalak pishirishga hozirlik ko'rishgan ekan. Atoqli olim Hodi Zaripovning yozishicha, Navro'zning yoshi 3 ming yildan ham oshar ekan.

Ota-bobolarimizning aytishlaricha, sho'rolar davrida Navro'zni diniy aqida sifatida qabul qilib, uni bayram qilish ta'qiqlab qo'yilgan ekan. Mustaqilligimiz sharofati bilan ko'hna va qadimiy bayramimiz yana qaytib keldi. Har yili 21- mart kuni Navro'zimizni - Yangi yilimizni keng tantana qilamiz. Bayramga taraddudlanib, umumxalq hasharini o'tkazamiz, mahalla va guzarlarimizni, hovli va ko'chalarimizni, ariq-zovurlarni tozalab, yurtimizga oro beramiz. Momolarimiz doshqozonlarda sumalak va halimlar pishirishadi. Bizlar ularga ko'maklashamiz, qo'shiqlar, laparlar aytib, tunni tongga ulaymiz. Dasturxonlarimizni bahor taomlari - ko'k somsalaru chuchvaralar bezaydi.

Yoshi nechada bo'lishidan qat'iy nazar, ushbu ayyom xalqimizning eng aziz va eng suyuqli bayrami ekanligini yaxshi bilamiz.

Muzaffar SALOMOV,  
Nargiza PAYZIYEVA,

Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis  
San'at litseyi o'quvchilari.



Turob NIYOZ

### GULNI ESLATDING

Bahor o'zligini senda ko'rsatdi,  
Dehqonga aytding rost: «Berma fursatni!»  
Bo'yingga qaragam, gulni eslatding,  
Yurtimga xush kelding, gul yuzim Navro'z!  
Bulbulni sayratding, gulni yayratding,  
Ko'zlarni yashnatding, dilni yayratding,  
Hammani o'zingga birday qarating,  
Yurtimga xush kelding, ildizim Navro'z!  
Shoir ham, baxshi ham sendan so'yladi,  
Oshiq ham, ma'shuq ham seni o'yladi,  
Hofiz ham, kuychi ham seni kuyladi,  
Yurtimga xush kelding, azizim Navro'z!  
O'lkamga yarashding uzuk ko'ziday,  
Beqiyos dilbarsan - chizsa chizguday,  
Go'zal kun bormikan, Navro'z o'zingday?!  
Yurtimga xush kelding, yolg'izim Navro'z!

Kattalar,  
e'tibor  
bering!




## SHU FASLDA

Umar Hayyom, Beruniy,  
Firdavsi-yu Navoiy,  
Navro'zni ta'rif aytab,  
Uni qildilar boqiy.

O'zbekimning navro'zi,  
Dil so'zi-yu til so'zi.  
Shu faslda yaralgay,  
Xalqimning rizqu ro'zi.

To'kin bo'lar dasturxon,  
Osmonga yetar xirmon.  
Ahillikdan yurtimiz,  
Bo'lib borar farovon.



She'r va musiqa muallifi  
Iroda O'AJONOVA, Buxoro shahridagi  
29- o'rta maktabning musiqa o'qituvchisi.

Assalomu alaykum qadri «Tong yulduzi» gazetasi bosh muharriri! Iqtisodchi olimlarimiz bilan hamkorlikda gazeta sahifalarida yosh iqtisodchilar ko'rik tanlovini yangitdan boshlab juda oliyjanob ish qilibsizlar. Afsuski, biz bu tanlov haqida juda kech eshitdik. Sababi, kollejimiz jamoasi 2003 yil uchun obuna bo'lgan 1000000 so'mga yaqin turli mahalliy va markaziy gazetalar orasida «Tong yulduzi» yo'q ekan. Fevral oyining oxirlarida bir o'qituvchimiz do'kondan xarid qilganda xaridini «Tong yulduzi»ga o'rab berishibdi. Tanlov haqida ana shu gazetadan o'qib qoldik. Qolgan sonlarini shahardagi o'quv yurtlari (2 ta oliy o'quv yurti akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, maktab, maktabgacha tarbiya muassasalari) kutubxonalaridan surishtirdik, topa olmadik. Viloyat kutubxonasidan ham topilmadi. Izlagan imkon topar ekan. Shahrisabzdagi qishloq maktabidan 9-, 23-dekabr sonlarini topdik. Hechdan ko'ra, kech deganlaridek, 2003 yilning ikkinchi yarmi uchun «Tong yulduzi»ga obuna bo'lmoqchimiz.

Kasb-hunar kollejimiz talabalari o'ta qiziquvchan, har bir yangilikka, yaxshi g'oyalarga ishtiyoqi baland o'g'il-qizlar. Sizlar bilan ijodiy hamkorlikda ish olib borishga azmu qaror qildik. Hurmat bilan Qarshi kompyuter texnologiya kasb-hunar kollejining direktori Husniddin AHMEDOV.

Tahririyatdan:  
Qadri Husniddin aka! Kuyunchaklik bilan yozilgan maktubingizni oldik. Siz kabi shogirdlari ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lmagan insonlarning borligi bizni quvontiradi. Butun bir katta viloyatda bolalar gazetasini izlab yurish uyat-ku! Bolalarni o'z gazetasi «Tong yulduzi»ga obuna qilish siz kabi rahbarlarning ham ishi.

Sizlarning «Iqtisoddan saboqlar» tanloviga yozgan javoblaringizga tanlov mutasaddilari befarq bo'lishmaydi, deb o'ylaymiz.



**Ustoz ilhomi****ONAMDAY MAS'UM**

Yurtim, bog'laringda bahor nafasi,  
 Quyoshni sog'inib, kurtak nish urar.  
 Musicha ku-kular, ariq bo'yidan  
 Zangori durra qiz - yalpi mo'ralar.  
 Qaldirg'och g'ujuri tutar havoni,  
 Sabolar maysaga aytadi alla.  
 Kunning nurlarini simirib asta,  
 Oppoq qor ko'yilagin yechadi dala.  
 Goh nuqra marvarid sochar bulutlar,  
 Quyosh jilmayishi onamday ma'sum.  
 Yangi sepin yoygan kelinchak misol,  
 Bahor yuzlarida mayin tabassum...

**Ma'rifat HAYDAROVA,**  
 Toshkent shahar, 273- maktab o'qituvchisi.

**QALDIRG'OCH**

Mana, qishning etni junjiktiruvchi sovuqlari tugab, bahorning iliq-issiq kunlari boshlandi. Daraxtlar kurtak ochib, ba'zilarining g'unchalari ochilay-ochilay deb turibdi. Ertalab allaqanday shovqindan uyg'onib ketdim. Qarasam, qaldirg'ochlar! Ular chug'urlashib, uyimiz atrofida parvona bo'lishardi. Nihoyat, ular ayvonimizning tepasiga in sola boshladi. Ularni kuzatish juda maroqli edi. Ular uyni loy «guvalachalar»dan qurisharkan. Hash-pash deguncha uy ham bitdi. Oradan kunlar o'tib, uya ichida ajib chiyillagan ovoz eshitdim. Qarasam, qaldirg'och bola ochibdi! Dam ona qaldirg'och, dam ota qaldirg'och sap-sariq og'izchalarini ochib chirqillayotgan bolalariga ovqat tashishardi. Bir kuni qaldirg'ochlarning qattiq chirqillashayotganini eshitib qoldim. Qarasam, ona qaldirg'och pastlab uchayapti. Yerdan esa uning bolasi chirqillardi. Men bolasini qo'limga olishim bilan ular yana ham qattiqroq chirqillashardi. Men asta-sekin oyoqlarim ostiga stol qo'yib, bolachasini uyaga qo'ydim. Shunda ona qaldirg'och minnatdorchilik bildirganday ayvon peshtoqiga qo'nib, mamnun sayrardi.

**Ulug'bek NURIDDINOV,**  
 Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Keles shaharchasidagi Hamid Olimjon nomli 12-o'rta maktabning 5- «V» sinf o'quvchisi.



50000

so'mdan

p u l

mukofotini

tashkil qildishibdi.

Undan tashqari mahalla bolalari o'rtasida sport musobaqalari ham o'tkazishayotgan ekan...

Men X.Mo'minov, M.Matkarimova, D.Majidova, X.Umarov, A.Rizayev kabi mahalladoshlarim haqida maqola yozgim keldi.



**Nigora Bonu ESHIMOVA,**  
 Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumanidagi 29-maktab o'quvchisi.

**MUROSA DARKOR**

Hind kinofilmlaridan biri bo'lmish «Ona muhabbati»ni tomosha qildimu haqiqat qaror topganidan behad quvondim. Unda bosh qahramon ayolni oqlash uchun yuzlab kitoblarni o'qiydi. Uzoq tortishuvlardan keyin u faoliyatini muvaffaqiyat bilan tamomlaydi.

Men ham kelajakda advokat bo'lmoqchiman. Zarur bo'lsa minglab kitoblarni o'qishga,

uning mag'zini uqishga bel bog'lamoqchiman. Chigalliklar domiga tushgan jabrlanuvchilarni qutqarib, ozodlikka yo'naltirmoqchiman. Shu maqsadda dugonalarim bilan «sud» o'yinini o'ynaymiz. O'z fikrini o'tkaza oladigan, dalil va sharhlarni asosli keltira oladigan dugonalarim navbati bilan «oqlovchi» bo'lishadi, murosaga chaqiradigani «sudy», yomon bahoni o'zlashtirmagani «aybdor», jahli tez «qoralovchi», gap ko'tara olmaydigani «jabrlanuvchi» rolini o'ynaydi. Bo'sh vaqtimiz unumli va sermazmun o'tayotganidan juda xursandman.

**Mashhurabonu BEHBUDOVA,**  
 Buxoro viloyati, Jondor tumanidagi 10-maktabning 4- «A» sinf o'quvchisi.

**ZUKKOLAR TO'GARAGI**

Maktabimiz Navxos qishlog'ida joylashgan bo'lsa-da, shahardagi maktablardan kam emas. Uning sport zali, sport maydonchasi bor. Turli mavzulardagi kitoblarni o'zida mujassam etgan kutubxona esa doimo o'quvchilar xizmatida. Yana maktabimizda bir nechta to'garaklar bor. Ulardan biri «Zukkolar o'yini» nomli til va adabiyot to'garagidir. Unda biz o'tilgan mavzularni tezkor savol-javob tariqasida o'zlashtiramiz. Eng yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar bular - Qurvongul, Gulnoza, Matluba, Dilafro'z, Sarvar, Doniyor, Nodir va boshqalar. Biz ustozimizning o'qitish uslublarini oson va foydali deb hisoblaymiz. Shuning uchun ham ulardan minnatdormiz.

**Malohat YOQUBOVA,**  
 Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 16-maktab o'quvchisi.

**2003 - Obod mahalla yili**

Mahalla yurtning ko'rki, shakl-shamoilini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lsa, uning mohiyatini yuqoriga ko'taruvchi mahalla faollaridir. Ana shunday insonlardan biri bizning Sobir Rahimov tumanida joylashgan

«Chig'atoy Oqtepa» mahallasining jonkuyari,

**MAQTAB YOZAMAN**

m a h a l l a  
 fuqarolar yig'ini raisi Xayrulla

Mo'minovni suhbatga tortdim.

-Biz «Obod mahalla» dasturini ishlab chiqdik,- deydi otaxon.- Ishimizni mahallaning barcha ko'chalarini tozalab, manzarali ko'chatlar ekish, daraxtlarni oqlab, ariqlarni tozalashdan boshladik. Aholi o'rtasida ogohlik, jinoyatchilikning oldini olish va «O'z uyingni o'zing asra» mavzularida suhbatlar o'tkazyapmiz. Huquqtarg'ibot idoralari vakillari bilan uchrashuvlar, tarixiy obida «Chig'atoy» tepaligini obodonlashtirish, G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligini tantanali o'tkazish oldimizdagi muhim vazifalarimizdandir.

Suhbatni ma'naviyat ishlari bo'limi boshlig'i Durdon opa Majidova o'quvchi yoshlarning o'zlari qiziqqan fan, yo'nalish bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishlari uchun harakat qilishayotganini aytdi. Ularning bilimi darajalarini rag'batlantirish maqsadida 261-maktab jamoasi bilan kelishilgan holda bir yil davomida faqat a'lo baholarga o'qigan o'quvchilarga

50000

so'mdan

p u l

mukofotini

tashkil qildishibdi.

Undan tashqari mahalla bolalari o'rtasida sport musobaqalari ham o'tkazishayotgan ekan...

Men X.Mo'minov, M.Matkarimova, D.Majidova, X.Umarov, A.Rizayev kabi mahalladoshlarim haqida maqola yozgim keldi.



**Nigora Bonu ESHIMOVA,**  
 Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumanidagi 29-maktab o'quvchisi.

**BIR YIL TUT EKSANG...**

Doston bilan Suhrob qishloqdagi bobo va buvilarinikiga mehmonga borishdi. Bahor kunlari emasmi, qishloqda ekin-tikin ishlari avjida. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma dalada. Aka-ukalar ham qarab o'tirmay, kiyim-boshlarini almashtirib, dalada ishlayotgan bobolariga yordamga oshiqishibdi.

-Bobojon, bu nihollar buncha kichkina?-so'radi olti yoshli Suhrob.- Ular qachon katta bo'ladi-yu qachon meva beradi?

-Bu nihollar ham sen tengi, bolam,-debdi bobo peshonasidagi terlarini belbog'i bilan artarkan gavdasini rostlab.-Ular ham sen bilan birga ulg'aya borishadi. Nasib bo'lsa, sening bolalaring ham, hatto nabiralaring ham uning mevasidan bahramand bo'lishadi. Buning uchun esa oying seni mehr bilan ulg'aytirayotgandek, ularni ham yaxshilab parvarishlash lozim bo'ladi...

-Bobojon, o'rtog'im Dilmurod boru, o'sha qo'shnimizning ekan ko'chatlarini sug'urib tashladi,-deya suhbatga qo'shildi Doston.-Ertasi kuni qo'shnimiz qurigan ko'chatlarning o'rniga yangisini ekayotgan ekan. Men unga yordamlashib yubordim.

-Sen sho'xlik qilib, ko'chatlarni sug'urib tashlagan boladan o'rnak olmagin,-dedi qo'shnimiz. Bizni uzoqdan kuzatib turgan Dilmurod xo'mrayganicha, aysang, ko'rasan, deya qo'llarini musht qilib ko'rsatib turardi.

-Ha bolam, o'rtog'ing yaxshi ish qilmabdi. Axir o'sha nihol daraxt bo'lib, hosilga kirsam, mevasidan o'zi ham yeydi-ku. Lekin sening ham ko'chatni sug'urib tashlayotgan do'stingga tanbeh bermaganing chakki bo'libdi,- deya nasihat qildi bobosi.- Hali ham kech emas. Uyga borsang, o'rtog'ingga o'z xatosini tushuntir. Mana bu niholni olaylik. Juda nozikkina-a. Uni hozirdaroq to'g'ri parvarish qilmasak, novdalari qiyshayib, shoxlari tarvaqaylab ketadi. Sizlar ham hali navniholsizlar. Qanday tarbiya ko'rsangiz, shunga yarasha ulg'ayasizlar. Darvoqe, uyingizning oldidagi tashlandiq joy bor-ku, o'sha yerga tut ko'chati ekinglar. Bir yil tut eksang, yuz yil gavhar terasan, deb bejiz aytilmagan, bolam...

Qishloqdan qaytishdi-yu Davron bilan Suhrob daraxtlarga, ayniqsa, navnihollarga alohida mehr bilan qaraydigan bo'lishdi.

**Sevara XOLIQOVA,**  
 Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani.



**Tanishing: Abbos ISXOQOV - 1988 yil 22-martda baliq muchali, qo'y burji ostida tug'lgan. Hozirda Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 223-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi. Ingliz tili, kompyuter to'garaklariga qatnashib, sport bilan muntazam shug'ullanadi.**

**Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun o'quvchilar oldindan o'zlariga repetitor yollab, ona tili, adabiyot, ingliz tili, tarix va shular kabi fanlar bo'yicha o'qib, o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. Abbos bilan suhbatlashganimda ingliz tili, kompyuterni repetitor orqali emas, maktabdagi to'garakda o'rganayotganligi ma'lum bo'ldi... Buning uchun maktab jamoasiga katta rahmat.**

**-Kompyuter to'garagiga a'zo bo'lishingizga nima sabab bo'lgan?**

-Kichkina g'imdan kompyuterda ishlashni, to'g'risini

aytsam o'ynashni yaxshi ko'rardim. Maktabimizdagi to'garakka qatnash - bo'sh vaqtimni bekor o'tkazmaslikka, ikkinchidan savodimni oshirishga katta yordam beryapti. Hozirgi kungacha men kompyuterda ko'p narsalarni o'rgandim. Birinchi sabog'imda ustozimdan «sichqoncha»ni boshqarishni o'rgandim. Keyin «sichqoncha» yordamida papkalarini o'zim mustaqil ocha boshladim.

**-Internetga munosabatingiz?**

-Internet saboqlarini sekin-astalik

**bo'lmoqchi ekansiz-da?**

-Yo'q. Yigit kishiga qirq hunar ham oz, deyishadi.

## O'TABEKKA O'XSHAGIM KELAR

Ingliz tili, kompyuterni o'zim uchun o'rganyapman. Kelgusida o'zim va oyim orzu qilganlaridek jarroh bo'lmoqchiman.

**-Sport bilan shug'ullanasizmi?**

-Deyarli har kuni. Futbol komandasiga qatnayman. «Paxtakor» jamoasidagi Mirjalol Qosimov, Leonid Koshelev, Sergey Jabborov o'yinlarini qoldirmay ko'raman.

Uyda esa bo'sh vaqtimda kichik sport turi - uy yig'ishtirish, supurish bilan

ham shug'ullanib turaman.

**-O'g'il bolaga uy yig'ishtirish, supurish uyat emasmi?**

-Yo'g'-ey, aksincha, oyinga yordamlashaman. Oilamizda qiz bola yo'q. Shuning uchun ukam bilan bunday ishlar cho't emas.

**-Kitob o'qishga vaqt ajrata olasizmi?**

-Albatta, badiiy kitob o'qib turaman. Masalan, «O'tkan kunlar», «Tohir va Zuhra» kitoblarini qiziqish

bilan o'qiganman.


**-Nima deb o'ylaysiz, hozirgi**

**zamonda Otabekka o'xshagan yigitlar ko'pmi?**

-Yo'q desam noto'g'ri gapirgan bo'laman. Otabekdagi o'zbekona odob, o'zbekona muomala, madaniyat, sharm-hayoni hozirgi kunda ayrim qizlardan ham topish qiyin. Lekin o'zbekona urf-odatlarini qadrlash biz yoshlarning, balki barchaning burchi hisoblanadi. Hozirgi zamon yoshlari Otabek singari yigitlar bo'lishini istayman.

**-Istagingiz amalga oshsin. Suhbatingiz uchun rahmat.**

GULYUZ suhbatlashdi.



**Maktabingizda to'garak bormi?**

## BILIMDONLAR SAFI KENGAYSA...

Bizning «Binokor» mahallamiz Toshkent shahrining Hamza tumanida joylashgan. Atrofimizda esa 212-rusiy zabon maktabi hamda 206-o'zbek maktablari bor. Mana shu maktab o'quvchilari mahallamizda tashkil etilgan bir nechta to'garaklarga qatnaydilar. Jumladan, «Chevar» to'garagida tikish- bichishga, pazandalikka qiziquvchi oqila qizlar bo'sh vaqtlarini ana shu yerda o'tkazayotgan bo'lsa, «Zakovat»ga bilimdon, chaqqon, ilmgatashna o'quvchilar, «Sinf dosh» teatrlashgan to'garakda esa san'atga mehr qo'ygan o'quvchilar jalb qilingan.

«Navro'z» bayramida to'garak a'zolari faol ishtirok etishdi. Unda «Zakovat»chilar o'z bilimdonliklarini ko'rsatib, ota-onalarini xursand qilgan bo'lsalar, «Sinf dosh»lar «Qaynar xumcha» ertagini sahnalashtirib, atrof dagilarga quvonch ulashdi. «Chevar» guruhi qizlari ham bo'sh kelmadilar. Ular tomonidan tayyorlangan chiroyli kiyimlar, ayniqsa, shirinliklar barchaga ma'kul bo'ldi.

Barcha tadbirimizga ota-onalar, mahalla faollari va albatta pedagoglarni taklif qilishni unutmaymiz.

Yaqinda «Zakovat»chilar uch guruhga bo'linib, o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdilar. Unda Hamza tumani Ma'naviyat va ma'rifat markazidan Elmira Tursunova, Muslima Chotboyeva, Ra'no Usmonova kabilar ham ishtirok etib,

bilimdonlarni tabrikladilar va o'z esdalik sovg'alarini topshirdilar.

O'quvchilarimning har biri bir olam. 7-«E» sinf o'quvchilaridan Ramiliya Xidirboyeva dutor chalib, raqsga tushadi, tikish, to'qish, ozodalik unga xos fazilat. Shahnoza qaqildog'im esa rollarni maromiga yetkazib o'ynaydi. Men uni aktrisam, chaqqonim deyman. Saidani nutqi ravon, zehni o'tkir, tirishqoq. Nazokat esa ismi-jismiga monand. Dilshoda bo'lajak jurnalist, shoira, o'ta bilimli, zukko qizim. Zamira har narsaga intiluvchi, bir so'zli, Shirin ham chaqqon, tadbirkor qiz. Jajji Donoxon esa juda shirinso'z, qo'llari tikishga moyil, aqli tiyrak qiz.

Bu qizlarim bilan sira zerikmayman. Ular menga hamisha ilhom berib turishadi.

O'quvchilar bilan birgalikda ziyoratgohlarga borishni, qariyalar uyiga borib, ular ko'nglini olishni rejalashtirib qo'yganmiz. Niyatlarimiz ko'p, maqsadlarimiz esa yagona. Bu ham bo'lsa, o'quvchilarning bo'sh vaqtlari mazmunli bo'lib, bilimdonlar safi kengaysa, deymiz.

**Rafiq**  
**YUNUSOVA,**  
**«Binokor»**  
**mahallasining**  
**muallim- tarbiyachisi.**



**To'garak faollari**

## TONGGI YULDUZINGIZ

### BO'LAY

Mening ona yurtim G'ijduvonni bilmaydigan kishi bo'lmasa kerak. O'zining hunarmand va dehqon insonlari bilan dunyoga mashhur. O'shaulug' insonlar qatorida mening bobojonlarim Tursun Sharipov, Obloqul Mansurov va Jamshid Mansurovlar ham bor. Shahrimizdagi eng chiroyli istirohat bog'ida bo'lsangiz did bilan ekilgan chinorlar- u majnuntollar, minglab atirgullari hovuz-ko'llarini ko'rib hayratlanmay ilojingiz yo'q. Har gal oilamiz bilan shu bog'larda sayr qilganimda ichimda allanechuk bir g'urur paydo bo'ladi. Onam va buvilarim men bilan ham tinmay dars tayyorlaydilar. Buvijonim Gulandom Sharipova O'zbekiston Xalq Ta'limi A'lochisi, Oliy toifali o'qituvchi. U kishi menga atab she'rlar yozgan:

*Asal qizim Zarnigorjon,  
Quloq tutgil menga sen.  
Toza qalbli irodali,  
Farishta qiz bo'lg'in sen.  
Kamtargina, andishali,  
Aqli qiz bo'lg'in sen.  
Ota-onang, avlodlaring,  
Tong yulduzi bo'lg'in sen.*

Birinchi ustozim Dilorom Olimova yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanib dars beradi. Biz bilan juda ko'p tadbirlar o'tkazadi. Bulardan «Onajonim tabiat», «O'zbekiston mening vatanim» kabilar bizni vatanni sevisha, ajdodlarimiz ishini davom ettirishga undaydi. Shuncha yaxshi insonlar bizga umid va ishonch bildirib yasharkan, men albatta oilamning, ajdodlarimning, ona yurtimning - tonggi yulduzi kabi yonib yashashga harakat qilaman.

**Zarnigor JO'RAYEVA,**  
**Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi**  
**1- maktab o'quvchisi.**





## O'zTV ijodkorlari

DO'STLIK - MEHR, ZAVOL BILMAGAN,  
DO'STLIK - QADR, QILICH TILMAGAN.

Ayniqsa bolalikdagi do'stlik haqida so'zlasang, bexos yuragingning nozik torlari chertilib ketgandek bo'ladi. Chunki bolalikdagi do'stlik abadiydir!

Ushbu suratdagi ikki do'stning tug'ilib o'sgan vatani boshqa-boshqa, millati, tili ham turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, juda inoq va qadrdon do'st bo'lishgan. Ona diyorimiz farzandi Maratjon (chapdagi surat) va gruziyalik o'quvchi Tamadzelarga qarab beixtiyor do'stlik manzil tanlamaydigan bir-biriga cho'zilgan yordam qo'li, madad yo'lidir deging keladi. Zero, bu nurafshon yo'ning osmoni musaffo, zamini beg'ubordir. Ana shu musaffo osmon, beg'ubor zamin qo'ynidagi do'stlik rishtalarini qanchalik mustahkamligini bilish maqsadida O'zbekiston Teleradiokompaniyasi Toshkent

kanalining katta muharriri

## HAM MA'NAN, HAM MODDIY JIHATDAN BOY BO'LSIN BOLALAR!

Marat aka Asadullayev bilan uchrashdim.

-O'quvchilarimiz o'zota-onalaridan eshitgan, kinolarda ko'rishgan, kitoblardan o'qigan bo'lsalar kerak, - deb so'z boshladi Marat aka. -1966 yili Toshkentda qattiq yer silkinib zilzila bo'lgandi. O'sha vaqtda dunyoning juda ko'plab mamlakatlari ona diyorimizga do'stona yordam berishga shoshildi. Toshkentga kelgan turli millat vakillari zilzila tufayli vayron bo'lgan zavod-fabrikalar, turar-joy binolari, maktab-bog'chalarni qaytadan bunyod etishda bir ota-ona farzandlaridek mehnat qilishardi. Yer yuzining turli burchaklaridan bu ofatning asoratlarini tezroq bartaraf etish maqsadida insonparvarlik yordamlari kelardi. Ayniqsa, sog'ligimizni o'ylab, biz bolalarni Belorussiya, Gruzuya, Ukraina kabi Respublikalar yozgi ta'til paytida o'z oromgohlariga qabul qila boshladi. Toshkentdagi maktablardan 200 nafar o'quvchi Gruzuyaga, ular orasida men ham «Sxneti» oromgohiga yo'l oldim. Bizni o'z farzandlaridek kutib olgan ushbu diyorni hamon hurmat bilan yodimga olaman. Oromgohdagi o'quvchilar, ayniqsa Tamadze bilan qalin do'st bo'lib qoldim. Bizning tillarimiz turlicha bo'lsa ham, yurakdagi tuyg'ularimiz, bolalik sho'xliklarimiz birdek edi. Tamadze bilan do'stligimiz abadiy qoldi. Doimo bir-birimizga dil nomalari jo'natib, bayramlarda qutlab turamiz.

## IZLAGAN IMKON TOPAR

-Izlanish, o'rganish va o'z ustida ishlash avvalo maktab partasidan boshlanadi. Bu borada bolalarimizga ta'kidlamoqchi bo'lgan fikrim, hech erinmay izlanavering, qancha ko'p izlansangiz shuncha ko'p o'rganasiz. Agarda maktab partasidan boshlab izlanishni o'rganmasangiz keyin qattiq afsus chekasiz.

Men ham bolaligimda xuddi siz kabi ko'p o'qirdim. Ammo bir chatoq tomonim bor edi-da, u ham bo'lsa matematika fanini unchalik xushlamasdim. Bu darsda to'polonchiligim boshlanardi. Boshqa fanlarni-ku suv qilib ichardim-u matematika faniga kelganda bilimimni bitta oyog'i oqsardi.

Baribir oqsoqlikni tuzatishga to'g'ri keldi.

Chunki, 9-sinfga o'tganimizda matematika fanini yaxshi bilmasam, boshqa fanlardan ham chuqur bilimga ega bo'lolmasligimni tushunib yetdim va bu fanni boshidan boshlab qattiq o'rganishga majbur bo'ldim. Endi meni biron daqiqa ham bo'sh vaqtim bo'lmasdi. Misol va masalalar, boshimdan, ikki yelkamdan, qo'ying-chi, yon atrofimdan yechimini so'rab tinimsiz yog'ildirdi. Ha, chatoq, kallamga balli-yey, yaxshiyam vaqtda bilib qolibman, sal bo'lmasa bu fanni o'rganolmay qolarkanman.

VAZIRANING BOSHI  
NEGA OG'RIDI?

-Shu desangiz, bir kuni yuvvoshgina bola bo'lib partamda dars tayyorlab o'tirsam, sinfdoshlarim Vazira bilan Abzal nimanidir talashib qolishdi. Vazira Abzalni quva ketdi. Bir aylanib o'tishdi, ikki aylanib o'tishdi, hech to'xtashmayapti. Sekin partadan oyog'imni chiqarib, ularning yo'liga qo'ydim. Abzal oyog'im ustidan sakrab o'tib ketdi, lekin Vazira kuch bilan yugurib kelib oyog'imga qattiq qoqilib ketdi va borib devorga boshi bilan urildi-yu ikkala qo'li bilan boshini changallaganicha bir zum turib qoldi. Boshi qattiq og'ridi shekilli, g'azab bilan menga tikildi. Jon holatda o'rnimdan sakrab turdim-u tashqariga yugura

Uyg'unning Navoiy p'yesasini sahnalashtirdik. Mendagi qobiliyatni sezib ustozim Husayn Boyqaro rolini menga topshirdi.


Alisher Navoiy

rolini esa bizdan bir sinf yuqori o'qiydigan Mirvosil ismli juda qobiliyatli o'quvchi ijro etdi. U Navoiyning «qon hidi kelmoqda bu saroydan, ketaman men elimga,



ketdim, orqamdan Vazira quvib kelardi. To'polonni boshlagan Abzal esa qutilib qoldi.

Shu qiz bolalar o'zi g'alati-da, ular bilan bir urishib



So'lim Sxniti oromgohida. 1966 yil.

qolsang bormi, ko'zlari ola-kula, sochlari to'zg'igan holda kechasi tushlaringga kirib chiqadi. Eng yaxshisi ularga indamagan ma'qul. Shu janjalkashlardan tortinib turardim, ulardan uyalarimmi-yey, sinfdosh qizlarning tutgan esdalik daftarlariga hech qachon suratimni yopishtirmaganman, faqat qisqagina tilaklarimni yozib berardim, xolos.

QIZLARINING  
VELOSIPEDI - O'ZIMNIKI!

-Men doimo ro'li yaltiroq velosipedim bo'lishini orzu qilardim. Ota-onam hamisha bu istagimni rad etishardi. Chunki yo'l qoidalarini bilmasdan biron ishkal chiqaradi deb o'ylashardi. Nihoyat dadamni holi-joniga qo'ymasdan velosiped oldirdim. Buni qarang-ki, men uchun olib kelingan velosiped qiz bolalarniki ekan. Obbo, dedim ichimda alam bilan, shu qizlarga nima uchun velosiped yasasharkan-a, o'tiravermaydimi kashtasini tikib, endi qanday qilib bu velosipedimni ko'chaga olib chiqaman. Qattiq xafa bo'lganimni sezgan dadam uning ayrim qismlarini almashtirib, o'zimga moslashtirib berdilar. Endi bu dunyoda mendan zo'r odam yo'q, chunki velosipedim bor edi-da.

## MEN - HUSAYN BOYQARO

-Sebzor dahasidagi Mirzo Ulug'bek nomli 16-o'rta maktabda tahsil olgan vaqtimda musiqadan Jalil Komilov, keyinchalik Mahkam Islomovlar dars o'ta boshlashdi. Men ulardan rubob chalish mashqini oldim. Bu ustozlarimdan behad minnatdorman.

Yangi yil arafasida maktabimizda Izzat Sul'ton va

ijodimga ketaman», degan

so'zlarini aytishi bilan, «O, Alisher do'stim, to'xtang», dedimu rostakamiga baralla yig'lab yubordim, chunki o'sha paytda men xuddi rostakam Husayn Boyqaro edim. Maktabdoshlarim olqishlari ostida sahnadan chiqarkanman, ustozlarimning mamnun nigohlariga ko'zim tushdi va shu daqiqadan boshlab qalbimda san'at sohasiga ajib bir qiziqish uyg'ondi. Bu mening ilk ijro etgan rolim edi. O'sha paytda 7-sinfda o'qirdim. Maktabni tugatganimdan so'ng Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakultetida tahsil olib, o'z ustimda tinmay ishlardim. Matbuotda she'rlarim, maqolalarim tez-tez chop etila boshladi. 1971 yildan boshlab esa televedeniya yordamchi rejissyor, 1976 yildan esa muharrir bo'lib ishlay boshladim. Mehnat faoliyatimda Haybat Aliyev, Sa'dulla Anorqulovlardan kasbim borasida ko'p narsalarni o'rgandim. Qator ko'rsatuvlar tayyorladim. Ayniqsa, bolalar uchun «Qovun tushdi», «Oltin baliq», «Shunchaki hazil» kabi hajviy ko'rsatuvlar, videofilmlarni ishtiyok bilan yaratdim. Hozirda «Qadr» nomli p'yesa ustida ishlayapman. Unda insoniylik, qadr-qimmat, vatanga muhabbat mavzulariga keng o'rin berilgan. Yaqindagina 26 seriyasi ekran yuzini ko'rgan 100 serialdan iborat «Qirq tog'oraning qirq nog'orasi»ning qolgan seriyalarini ham namoyish qilishga harakat qilayapman.

-O'talar qattiq qo'l bo'lishadi-a? Siz bunga qanday qaraysiz?

-Qattiq qo'llikka ijobiy yondoshaman. Lekin tergap turish bu borasida ularning nafsoniyatiga tegib, oshirib yubormaslik lozim. U hali bola. Bolaning ko'ngli esa shisha misoli nozikdir. Oilada 4 farzandim bor. Katta qizim Oydin - huquqshunos, Dilafroz - iqtisodchi, o'g'lim - Abdullo Toshkent Tibbiyot Oliygo'hi talabasi, kichik qizim Fayzixon 9-sinfda o'qiydi. Turmush o'rtog'im Diloromxon - shifokor.

Tilagim, har bir o'quvchining oliy maqsadi bo'lsin, hayotda o'z o'rnini egallashga ishtiyoki, xalqimizga kelajakda foydasi tegadigan sevimli kasbi bo'lsin. Ularni ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan boy-badavlat bo'lishini istayman. O'lkamizga qadam qo'ygan Navro'zi olam hamma dillarni munavvar qilsin!

Jamila ERDONOVA suhbatlashdi.



Jizzaxda nima gap?

-She'riyat mulkining sultoni, bobomiz Mir Alisher Navoiy hazratlarining shunday baytlari bor:

Haq yo'lida kim senga bir harf, o'qutmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin ming ganj ila, - deydi.

Avvalobarchamizgata'lim bergan, ezgulik yo'lida jonbozlik ko'rsatib, yo'lga solgan aziz ustozlarimizni qanchalik sharafilasak oz. Hozir og'izdan-og'izga ko'chib yurgan bir gap bor: «Maktablarda, ilm dargohlarida fidoiy insonlar ishlayapti», degan. Aslida ham shunday. Maktabda ishlayotgan har bir insonni men fidoiy inson deb bilaman. U ko'zining nuri, oqu qorasi bo'lgan kelajakni tarbiyalayapti. Ko'pchilik «O'qituvchiga oson, maktabga boradiyu bir-ikki soat dars o'tib qaytib kelaveradi, bundan oson ish yo'q», deb o'ylaydi. Yo'q, aslida maktabga borib, 45 daqiqa dars o'tib kelish orasidagi zavqli azob chekish barchaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ayniqsa, bugungi farzandga, ozod elning ozod bolalariga ustozlik qilish, ularning teran fikri, yetuk bilimi va albatta ma'nani sog'lom tafakkuriga biror bilimni berish, uning har qanday savoliga qoniqarli javob bera olish, mashaqqat, zavqli mashaqqat. Eski tuzumda edi, darsliklarni o'qib, o'quvchiga yetkazib berishu ortiqcha savollarga o'rin yo'qlik. Bugun batamom

## ORZULARI OLAM BOLALAR

- deydi Islom Anorboyev, Ta'lim markazi direktori

o'zgacha, har bir farzand, maktab ostonasidan xatlagan bola kelajagi buyuk yurt barpo etishda o'zi uchun nimalar kerakligini juda yaxshi biladi. Shu jumladan, bizning Jizzax viloyatimizda ham o'quvchilarni ma'nani barkamol hamda jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishishi uchun barcha sharoitlar, imkoniyatlar berilmoqda. Viloyat bo'yicha 536 maktabda 262443 nafar o'quvchi taxsil olayotgan bo'lsa, ularga 1980 nafardan ortiq o'qituvchi ustozlik qilmoqda. Bugungi kunda, maktablarda darslik muammolari hal qilinmoqda.

Viloyat deyarli ijara tizimiga to'liq o'tdi. Kam ta'minlangan oilalarga boshqarma tomonidan, keyin joylardagi homiy tashkilotlar tomonidan yordam berib kelinmoqda. Ta'lim muassasalarining o'zini-o'zi qoplashi uchun davlat rejalaridan chiqarilgan holda suvli yerlardan eng kamida 2-3 gektardan, lalmikor yerlardan esa 30-40 gektardan yer maydonlari ajratilgan. Ulardan olingan foyda darsliklarga, kam ta'minlangan oilalarga, umuman olganda maktabning ehtiyojlariga ishlatiladi. Bir narsani faxr bilan aytsak arziydi, yoshlar haqida qayg'urish,

ularning muammolarini hal qilish, imkoniyatlar yaratib berishga nafaqat davlat tashkilotlari, balki nodavlat va jamoat tashkilotlar ham o'z yordam qo'llarini cho'zmoqda.

Jizzaxda viloyat bo'yicha xalqaro miqyosida olib qaralganda ham bir muncha yutuqlarga erishganmiz, 2 ta o'quvchimiz Lochinbek Esonov va Silva Agidjaye va Aksels tanlovida g'olib chiqib, hozir Amerikada tahsil olmoqda.

Bundan tashqari, G'allaorol tumanidan Umarov Bahodir degan o'qituvchimiz Yerevan shahrida rus tili bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro musobaqada yuqori natijalarga erishib qaytdi.

Yutuqlarimiz ko'p, lekin kamchiliklarimiz ham oz emas. Uzluksiz ta'lim tizimidagi «Umid nihollari» musobaqasidagi ishtirokimizni qoniqarli bo'ldi deb bo'lmaydi. Kamchiliklarni bartaraf etib yutuqlarni ko'paytirishga butun Jizzax viloyati harakat qilayapti, desam yanglishmagan bo'laman.

Jizzaxlik bolalarning orzulari olam-olam, ular hali jahon sahnasida adabiyotimizda o'zini ko'rsatib, Sharof Rashidovdek, Hamid Olimjondek, Lazizbek Zokirovdek insonlarning izdoshlari bo'lib voyaga yetishiga ishonadi.

Asliddin ABDULAZIZ o'g'li yozib oldi.



BAHOR

Orzularim osmonga sig'mas,  
Shul Vatan deb yonib boraman.  
Qanotingda ko'tar qaldirg'och,  
Bahor, seni yaxshi ko'raman.  
Dilda tug'yon urdi o't yoqib,  
Kapalakning kulgusin tuydim.  
Ilk tongingda samoga boqib,  
Gulbahorim, qayta tug'ildim.  
Bugun mana, yasharish fasli  
Gulg'unchadek, qalbimni ochdim.  
Orzularim, tuyg'ular asli  
Navbahorim seni sog'indim.  
Qur-qurlagan turnalar qaytdi,  
Yana yurtga kirdi tarovat.  
Sim-sim yong'ir shivirlabo'tdi,  
Poklik bilan yo'g'rildi hayot.

Muhayyo TURDIALIYEVA,

Akmal Ikromov tumanidagi akademik litseyning 1-bosqich talabasi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Tolstoy esa eslaydi va to'g'ridan shunday

deb yozadi:

Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.  
Abu Shukur Balxiy

«Men uni yaxshi eslayman, u doimo jiddiy qiyofali haqiqiy olim bo'lib ko'rinardi. Geometriyada nima ish qilganini o'sha paytda mutlaqo tushunmasdim.

## ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu rukni Rustam OBID olib boradi

bahslashgani uchun gina tarixda nomi qolgan Yevgeniy Dyuring «Gauss geometrik telbalik kasalligiga uchragan», deb ochiqdan-ochiq yozib chiqdi. Ana shunda buyuk zakovat egasi chekinishga majbur bo'ldi. Astronom Basselga yo'llagan maktubida Gauss dardu alam bilan

shunga o'xshash g'aroyib mayda-chuydalarga to'la qutilar egallagan. Lekin bu dahmaza

olimning do'stlari

Eron, Turkiya, Misrdan olib kelgan sovg'alar

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.  
Sharq naqli

bo'lgani uchun tashlab yuborish uchun ham noqulay. Xona o'rtasidagi stol

## "GEOMETRIYANI NOMUKAMMAL BILDIM"

Ammo rektor sifatida u bilan suhbatlashuvimga to'g'ri kelgan. Garchi yomon talaba bo'lsam-da, menga o'ta hayrixohlik bilan muomala qilgan».

Lobachevskiy Qozondan tashqari kamdan-kam hollarda va istamaygina chiqardi. Faqat Peterburg va Derpt shaharlarida bo'lgan, yana 1840 yili Gelsinforsga o'sha yerdagi universitet tantanasida qatnashish uchun borgan, xolos. Ikki yil o'tgach, buyuk matematik Gaussning tavsiyasi bilan Nikolay Ivanovich Gyottingen qirollik jamiyatining muxbir a'ziligiga saylanadi. Lobachevskiy chet elga hech qachon bormagan. Gauss esa Peterburgga kelish taklifini rad etgan. Mana shu tariqa ming afsuslar bo'lsinki, matematika tarixidagi eng muhim uchrashuv amalga oshmay qolgan. Gaussning o'limidan keyingina rus geometriyaning g'oyalari mohiyatini uning yuksak aql-idroki anglab yetgani ma'lum bo'ldi. Ammo bu g'oyalar shu qadar dahriyona, yangiligiga ko'ra shu qadar zarbali ediki, ularning haqiqat deb ochiq tan olishga hatto Gaussdek olimning ham jur'ati yetmagan. Vaholanki, o'zi hammasini o'ylab Broken, Inzelberg va Baland Gagen tog'lari bo'yicha tasavvurida ulkan uchburchak o'tkazgandi. Shu uchchala tog' cho'qqilariga gedolit o'rnatib, eng mahobatli geometrik tajriba o'tkazishni - burchaklar summasini o'lchab, u chindan ham ikki to'g'ri burchak summasiga to'g'ri kelishini tekshirmoqchi bo'lgan edi. Biroq, olimning bu dadil rejasi ovoza bo'ldi-yu bechora johil kimsalarning kulgusiga qolib ketdi. Uni mazax qilib latifalar to'qishdi. Fridrix Engles bilan

shunday dedi: «Bu masala bo'yicha keng ko'lamdagi tadqiqotlar natijasini e'lon qilish uchun yaqin orada qayta ishlab chiqolmasam kerak. Bu ishga balki butun umrim mobaynida qo'l urolmasman, chunki o'z ta'limotimni yaxlit e'lon qiladigan bo'lsam johillar qanchalik ayuhannos solishlaridan cho'chiyman». Holbuki, aynan shu o'rinda Lobachevskiyga Gaussning jasurligi nihoyatda zarur edi. Olim o'z kasbining madadiga naqadar muhtoj edi-ya! Chunki uning atrofidagi hayot bir xil va o'lgudek zerikarli kechardi. Universitet ishlari, ma'ruza o'qish, ilmiy kengash yig'ilishlaridan ortmasdi. 52 yoshida uning professorlik muddati tugadi, shu o'rinda quruq rasmiyatchilik - ministrlik bu muddat uzaytirilishini tasdiqlashi qolgan edi, xolos. Lekin bu ish nimagadir cho'zilib ketdi. Oraga har xil mish-mishlar, kurakda turmaydigan mayda gaplar oralab qoldi va tasdiqdan dom-darak bo'lmadi. Lobacheskiy ana shu tariqa universitetdan ketishiga to'g'ri keldi. Endi uning o'quv okrugi mutasaddisining yordamchisi degan kichkina amali, uyi va oilasi bor edi, xolos. Uch qavatli katta uyda kattagina oila yashar, Lobachevskiy xonadonida o'n beshta farzand dunyoga kelgan edi. Biroq olimning hatto shu tomondan omadi kelmadi. Bolalarining bari qandaydir sho'rpeshona bo'lib chiqdi. Ba'zilar kasallanib o'lib ketdi, omon qolganlari esa ilm-fanga mutlaqo qiziqmay, qo'llaridan biron-bir ish kelmay, bir umr qashshoqlikda yashab o'tishdi. Ana shu katta va sershovqin uy ichida ko'rimsizgina bir xona bo'lar edi. Hammayoqni igna sanchilgan qo'ng'izlar va

yonida esa ko'r odam o'tirardi. U ko'zi ojizligidan uyalar va buni xotini yashirardi. Xotining shubhalari ustidan kular, odamlarni qadam tovushidan tanib olishga urinardi. -Sen ko'rsan axir, ko'rsan! - deb qichqirardi xotini jazavaga tushib.

-Yo'q, men ko'ryapman, - derdi u va keyin nima deyishni bilmay qolardi. Dardni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. Lobachevskiy 63 yoshida o'pka falaji xastaligidan vafot etdi. Umri poyoniga yetganini bilganida esa oddiygina qilib, «Odam o'lish uchun tug'iladi», deb qo'ydi, xolos. Va keyin shu qadar ohista jon berdiki, hatto doktor bunga ishonolmay hadeb tomir ko'rar, uni yuziga yonib turgan shamning ko'z yoshlarini tomizar, mushaklari titrashini kutardi.

Nikolay Ivanovich o'z bog'iga kedr nihollarini ekan bo'lib, keyin ko'pincha «Hali yong'oqlarini ham ko'ramiz», deb yurardi. Daraxtlar u vafot etgan yili nishona qildi. Nasib etmagan ekan.

Oradan yillar o'tdi. Vaqt-soati kelib, viloyatdagi kambag'al bir ruhoniyning o'g'li Bergard Riman o'z geometriyasini - «Lobachevskiy geometriyasining aksi»ni yaratdi, u ham qozonlik olim ta'limoti kabi g'alati, qat'iy va mantiqiy edi.

Turli fazolarning geometriyalari sari yo'l ana shu tariqa ochildi. U esa nisbiylik nazariyasining to'rt o'lchamlik olamiga aql bovar qilmas darajada ulkan va teran okeanga olib boradi. Insoniyat esa bu behad ummon sohiliga endigina chiqdi.

(Tamom).



Aziz bolalar!

Siz bilan biz bugun SHE'R degan sehrli va jozibali narsa qanday olamga kelishi to'g'risida suhbatlashamiz.

Ko'pincha maktablarga borganimda bolalar, albatta she'r qanday yoziladi, qay vaqtda yoziladi, nega yoziladi, deb mendan so'rashadi. Mana, yaqinda Nafis san'at litseyi o'quvchilari bilan bo'lgan uchrashuvda ham mana shu savolni berishdi. Men ularga aytdim: kishi-hayot ichida ta'sirlanuvchi bir jonli jism. Hayotda yuz bergan har qanday hodisa uning borlig'iga ta'sir qiladi - biri uni kuldiradi, biri yig'latadi, biri hayajonga soladi. Va shoir hayotida shunday voqealar ham yuz beradiki, buni birovga aytmasa, balki yorilib ketishi ham mumkin. Chunonchi, ulug' rus shoiri «Pushkinning duelda halok

bo'lishi, yosh shoir Lermontovga shunday ta'sir qildiki, agar o'sha paytda «Shoirning o'limi» she'rini kimdir yozishga yo'lqo'ymasa, Lermontov o'zini osib qo'yishi mumkin edi», degan edi Abdulla Qahhor. Tarixdan bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Bugun biz siz bilan shoir Boris Pakning «O'ttiz yettinchi yil» nomli she'rining yozilishiga sabab bo'lgan bir tarixiy hodisani o'rganamiz.

Shoir Boris Pakning millati koreys, ammo Koreyada emas, O'zbekistonda yashaydi. O'zbekcha emas, ruscha ijod qiladi. «O'ttiz yettinchi yil» she'rini ham rus tilida yozgan. Xo'sh, u O'zbekistonga qayoqdan kelib qolgan. Nima uchun o'z ona tili koreyschada ijod qilmaydi? Har bir kishida uyg'onishi tabiiy bo'lgan bu savolga javobni 1990 yili «O'zbekiston» nashriyotida chiqarilgan «Oq laylaklar mamlakatining avlodlari» degan kitobchadan topishingiz mumkin. Uning muallifi

ham shoir Boris Pakdir.

Unda yozilishicha, Boris Pakka o'xshagan koreyslar ilgari Koreya davlatining shimolida, Rossiya imperiyasining uzoq Sharq hududlarida yasharkanlar. U yerda koreyslarning Pedagogika instituti, Milliy teatri, gazeta va jurnallari, atoqli yozuvchi va shoirlari, maktablari bo'lgan ekan. Ammo SSSR atalmish Qizil saltanatning rahbarlari 30 yillarda Yaponiya bilan Germaniyaning harbiy hamkorligidan va Yaponiya Rossiyaga bostirib kirgan taqdirda koreyslar ham yaponlarga qo'shilib ketishi mumkinligidan xavotirda, 1937 yilda koreyslarni Uzoq Sharqdan

O'rta Osiyo va Qozog'istonga ko'chirish to'g'risida yashirin farmon chiqargan, shu tariqa uch yuz ming koreys o'z yurtidan haydalib, biz taraflarga surgun bo'lib kelib qolgan ekan.

Surgun qilingan koreyslarni, O'zbekiston rahbariyati-Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev va boshqalar hamdardlik bilan kutib olishgan, xalqimiz ulardan qardoshlik yordamlarini ayamagan, har bir oilani bir qopdan un va jo'xori, hatto sigir va tovuqlar bilan ta'minlashgan. Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayevlarning o'zlari ham qatag'onga uchrashganidan keyin esa koreyslar Usmon Yusupov, Yo'ldosh Oxunboboyevlardan ham ko'p yaxshiliklar ko'rishgan.

Koreyslar surgun qilinganda Boris Pak besh yashar bola edi. Uning oilasi ham O'zbekistonga kelib tushdi. Koreyscha maktab yo'qligi sababli Boris rus maktabida o'qidi.

Ammo Boris zehni o'tkirligi tufayli rus tilini juda tez va

## ADABIYOT DUNYOSIGA SAYOHAT

yaxshi o'zlashtirdi va hatto shu tilda she'rlar yoza boshladi. She'r timsollarga boyligi, asilligi va ohangdorligi bilan o'quvchilar va jamoatchilik hurmatini qozondi. Ketma-ketiga uning kattalarga va bolalarga atalgan «Oqqush yulduzi», «Moviy ark», «Zubtutum», «Cho'pchagim-cho'pchak» kabi 15 ta kitobi nashretildi. Ayni chog'da uning kitoblari o'zbek va boshqa tillarga ham

tarjima qilindi. Va u ham boshqa tillardan, jumladan, o'zbekchadan ham bir qator shoirlarning asarlarini ruschaga o'girdi. Shu tariqa uning hozirgacha o'ttizga yaqin to'plami e'lon qilindi.

Boris Pak she'rlarining ohangdorligi juda ko'p bastakorlarning e'tiborini o'ziga tortdi. Uning yuzta she'riga mashhur bastakorlardan Vano Muradeli, Grigoriy Ponomarenko, Yevgeniy Rodigin, Nikolay Polikarpov, Anatoliy Bayev, Boris Giyenko, Aleksandr Berlin, Sergey Varelas, Eduard Qalandarov, Yefim Shvars, Eola Pak kabilar musiqa bastalashgan. Ular jahon sahnalarida ijro etilmoqda. U o'zining bastakor qizi Eola Pak bilan hamkorlikda «Buvimni qaytarib bering» filmiga «Kolumb» qo'shig'ini yozgan.

Hozir shoir Boris Pak 70 yoshga kirdi. U O'zbekiston va Koreya o'rtasida adabiy hamkorlik o'rnatish uchun astoydil jonbozlik qilmoqda. Biz ham uning qutlug' yoshi va adabiy faoliyatini muborakbod etamiz va shoirga mustahkam sog'lik, yangidan-yangi muvaffaqiyatlar tilaymiz. Quyida shoirning «O'ttiz yettinchi yil» she'rini e'tiboringizga havola etayapmiz.

Miraziz A'ZAM.

Boris PAK

## O'TTIZ YETTINCHI YIL

Tur, ey xalqim! Bo'l, ovoza qil,  
Dardlaringni ayla dasturxon.  
O'TTIZ YETTI degan mash'um yil,  
Yuraklardan ketmas hech qachon.  
Yurt boshlig'i edi Stalin,  
Yo'qotardi raqiblarini.  
Orttirardi oy va kun sayin,  
Qatag'on va ta'qiblarini.  
Zinoviyev va Buxarinlar ham,  
O'sha yili yer tishlatildi.  
Barcha yurtni quchdi g'am-alam,  
Yer ostida el ishlatildi.  
O'sha yili Qodiriy, Fitrat,  
Tashlatildi qora zindonga.  
Hukm surar zo'rlik va dahshat,  
Kun yo'q edi har bir insonga.  
Kremla dohiy-yurtboshi,  
«Yurt tinchi»ni o'ylardi go'yo,  
Chimrilardi ikkala qoshi,  
Chegarada yo'qmidir g'avg'o?  
Uzoq Sharqda kimlar yashaydi?  
Koreyslarmi? Ko'pmi koreyslar?  
Yo'q, koreyslar tursa bo'lmaydi!

Ko'chirishga tayyorlang reyslar!  
Tayyorlandi maxsus bir farmon,  
«Ko'chirilsin koreyslar darhol!»  
«Nega, gunoh qildikmi biron?»  
«Ortiqchadir har qanday savol!»  
El gangidi qora xabardan,  
Arz qilsinmi borib bir yoqqa?  
Kim norozi bo'lsa agarda,  
Zo'rlar olib ketar qamoqqa.  
Yig'lay-yig'lay tugadi sabri,  
Onalarning ko'zi ko'r bo'ldi.  
Nima, bo'lar otalar qabri,  
Millat oyoqosti, xo'r bo'ldi.  
O'z uyidan quvildi har kim,  
Bekatlarga haydaldi molday.  
Birov aravada, ulovda balkim,  
Yana birov bilmadim, qanday?  
Dalalarda dehqonsiz qolgan,  
Boshin egib sholipoyalar.  
Uvillarda ofat isini olgan,  
Hamma itlar, kuchuk bolalar.  
Hamma motam tutardi go'yo,  
«ENDI NIMA BO'LAR HOLIMIZ?»

Dengiz qolib, bizni kutardi sahro,  
Endi bo'larmikin hovlimiz?  
«Bu kunni yodingda olib qol!»-  
Chinqirardi parovoz tinmay.  
Simyog'ochlar soqchilar misol,  
Kuzatardi joyidan jilmay.  
Men besh yashar bola edim qulab,  
Bezgak tutib alahsirardim.  
Qaltirardim «oyi! oyi!»lab,  
Shirguruchmi, sutmi so'rardim.  
Kerak emas menga qotgan non!  
Kerak edi o'tirish jilmay!  
Qiyinalardim g'o'ldirab chunon,  
O'zbekchani, ruschani bilmay.  
Hayot tuzilgandi zulmdan,  
Yo'l yo'q edi bo'yin tovlashga.  
U ayirdi ona tilimdan,  
Majbur etdi ruscha so'zlashga.  
Yo'l yuramiz tushimda hamon,  
Chinqirardi hamon poyezdlar.  
Qator-qator nahangday vagon,  
Yutilamiz qorniga bizlar.

So'ng surildi Volga bo'yidan,  
Nemislar ham Qozog'istonga.  
Qrim-tatar, mesxeti-turklar,  
Surgun bo'ldi O'zbekistonga.  
Pasportimga, qonimga ko'ra,  
Men koreysman, ammo ruslashdim.  
Faqat yuzim, ko'zim koreyscha,  
O'zligimdan ajrab, adashdim.  
Xalqlar ko'rgan bunday iztirob -  
Quvg'inlaru qirg'inlar uchun.  
Mana endi kim berar javob?  
Ko'ring qonli yuragim ichin!  
O'z ARIRAN - koreys kiyimni,  
Tinglaymanu o'ylarga cho'kib.  
O'rganaman alifboyimni  
Tongga qadar ko'z yoshim to'kib.  
Tur, ey xalqim! Bo'l, ovoza qil -  
Dardlaringni ayla dasturxon.  
O'TTIZ YETTI degan ma'shum yil,  
Yuraklardan ketmas hech qachon!  
Biz, butun xalq birga, yov bo'lib,  
Sud etaylik ZO'RLIK tizimin.  
To manguga barqaror qilib,  
O'mataylik HURLIK tuzumin.






### QUYOSHGA QARAGAN UY

O'zbeklarning odati,  
Uyni sinchlab quradi.  
Zilzila-yu shamoldan,  
Ko'ngil tinchlab quradi.  
Quradi hunaridan,  
Mo'jizalar yaratib.  
Naqshinkor ayvonini,  
Quyosh tomon qaratib.  
Quyoshga qaragan uy,  
Xavfu xatardan holi.  
Yuz yillar o'tsa hamki,  
O'chmas husnu jamoli.  
Xalqim aql kuchidan,  
Bir uy qurdi mustahkam.  
O'zbekiston kabi uy,  
Dunyo ichra kamdan-kam.  
Omon bo'l, ayvonida,  
Kun sochin taragan uy-  
Mustaqil O'zbekiston-  
Quyoshga qaragan uy!

### NON

Nonning azizligin  
Boisi shunda,  
Ona barmoqlarin  
Tafti bor unda.



### TAAJJUB

Buvimlarning og'zida,  
Hech tishi yo'q ekan-a?  
Bolalikdan novvotni,  
Qanday qilib yegan-a?

*Topiljon JALOLOV,  
Andijon viloyati,  
Buloqboshi qishlog'i.*

### QARIMAYSIZ, ONAJON

Sochingizga onajon,  
Oq oralab qolibdi.  
Nurafshon yuzingizdan  
Ajin o'rin olibdi.  
Nahotki qarilikdan,  
Bular berar nishona.  
Nahotki, qaridingiz,  
Ishonmayman, yo'q, ona!  
Axir siz buyuklikning,  
Eng yorqin timsoli-ku!  
Gulgun hayotimizning,  
Iqboli, kamoli-ku!  
Siz borsizki, uyimiz  
Yorqin-u fayzga boy.  
Kunduz quyosh bo'lsangiz,  
Oqshom boshimizda oy.  
Nega qarir ekansiz,  
Qarimaysiz o'zingiz.  
Umringizga umrlar,  
Qo'shar o'g'il-qizingiz.  
Bizning chehramizda bor  
Aksingiz-suratingiz.  
Qalbimizda jo bo'lgan,  
Xushfe'llik - siyratingiz.  
Shu bois bir umrga  
Yashagaysiz onajon.  
Toki biz bor ekanmiz  
Qarimaysiz, hech qachon!  
*Hakim ORTIQOV,  
Ichki Ishlar Vazirligi faxriysi.*

### QO'RQAMAN

Bog'cha-bog'cha o'ynashar,  
Ko'chada qizlar.  
Do'stim bilan qiziqib,  
Kuzatdik bizlar.  
Atrofida bir talay,  
Harxil qo'g'irchoq.  
Har qo'g'irchoq yonida,  
Bitta o'yinchoq.  
Ana bitta qo'g'irchoq,  
Dumalab qoldi.  
Tarbiyachi Shohista,  
Bag'riga oldi.  
Bir qo'g'irchoq judayam,  
Chiqdi yig'loqi.  
Xolida der:-Hoynahoy  
Og'rir qulog'i.  
Oq xalatlil Hadicha,  
Tekshirib uni.  
Buyruq berdi ukolga  
Tayyorlang buni.  
Qo'g'irchoqning egasi  
Gulnora edi.  
-Ukol qilmang, doktorjon,  
Qo'rqaman!-dedi.

### Ustozlar ijodi



### XO'PDEDI

-Do'st bo'laylik!-degandim,  
Tipratikan: -Xo'p!-dedi.  
-Qani unda isbotla,  
Bir quchoqlab o'p,- dedi.



### ISHTAHA

-Ishthang yo'q, bilmadim  
Nimalar yeb to'yibsan?  
-Ishtham bor, men uni  
Shokoladga qo'yibman!

*Qo'zi ISMOIL,  
Xorazm viloyati, Xazorasp  
tumanidagi Feruz nomidagi  
umumta'lim maktabining  
o'qituvchisi.*

Zaminda gul- chechaklar  
unib, ko'klamga chiqib  
olganidan hurram qurt-  
qumursqalar bir- birin  
qutlashib, shahdlari oshib,  
daraxt shoxlarida qish  
bo'yi mudragan kurtaklar bo'rtib,  
o'tloqlar uzra bolarilar  
mamnun g'o'ng'illashib,  
bog'lardan o'rik gulining  
jannatyi isi anqib, shishadek  
tiniq osmonda  
parqu bulutlar tamanno  
ila erinibgina  
suzayotgan, asriy muzlardan  
salla o'rganan  
tog'lar lolaqizg'aldoqlardan  
alvon libos  
kiygan qirlarga havas  
ila boqqan bir mahalda  
Bahoroy shamolning  
qanotiga o'tirib  
olgan chuchmomalar  
qiyg'os ochilib  
yotgan o'tloq ustidan  
uchib o'tayotgan  
ekan. Bahoroyga tinib-  
tinchimas chaqqon  
qaldirg'ochlar hamrohlik  
qilishar, tinmay  
vijirlagan olamdagi  
yangiliklar haqida  
so'zlab berishar ekan.  
Bahoroyning  
ko'ylagi burmasidan  
mo'ralagan  
binafshalar kim o'zarga  
atrin anqitib,  
tevarak-atrofn hush ifori  
bilan to'ldirishar  
ekan. To'satdan Bahoroy  
chuchmomalar  
chamani orasida g'amgin  
o'tirgan Navro'zjonni  
ko'rib qolibdi.

-Navro'zjon, nega xafasan? - deb so'radi Bahoroy.

-Varragim uchmayotganiga xafa bo'layapman,- deb javob beribdi Navro'zjon. Kecha kun bo'yi urinib kattakon varrak yasadim, uni hafsala bilan turli ranglarga bo'yadim, suratlar chizib bezatdim, rangdor qog'ozlardan dumchalar o'rnatdim. Rosa mazza qilib varrak uchiraman, deb o'ylagandim. Qayoqda deysiz, varragim yerdan boshini ko'tarishni istamayapti. Xuddi uxlab qolganga o'xshaydi.


-Menga qara, Navro'zjon, - debdi Bahoroy,- men senga yordam berishim mumkin. Avvalambor, senga ikkita boshqotirma beraman, agar ularning javobini topa olsang, varraging

## NAVRO'ZNING BOSHI QOTDI

(Topishmoq)

shunaqangi uchadiki, naq bulutlarga yetadi. Mabodo topolmasang-chi ...

-Bo'pti! - qichqirib yuboribdi Navro'zjon. - Tezroq boshqotirmani ayta qoling, hammasini topib tashlayman!



	U	CH	Z	O'	T
M	O	M	A	K	I
A	O	T	L	G	
A	O	D	A	U	
G	R	A	L	I	O
I	S	Q	I	Z	L
I	N	G	A	S	
S	H	F	A	I	L
A	R	A	F	U	D

-Navro'zjon, maqtanma!- deb ogohlantiribdi Bahoroy.  
-Mening boshqotirmalarim biroz murakkabroq, ularni

yechish uchun anchagina narsani bilish kerak bo'ladi.

Demak, birinchi

boshqotirma, bu - FILVORD. Unda yettita gulning nomi yashiringan. Sen gullarning surati chizilgan katakka uning nomidagi bosh harfni qo'yasan, keyin

chiziqchalar bilan boshqa harflarni ham birlashtirasan.

Ikkinchi boshqotirma, bu-ALTENVORD. Uni varragingning ichiga joylashtirdim. Bunda uchburchaklar ichidagi ortiqcha harflarni olib tashlasang, topishing lozim bo'lgan so'z chiqadi. Agar ikkala boshqotirmani to'g'ri yechsang, varraging o'sha zahotiy oq uchib ketadi.

Navro'zjon ancha urinib, filvordni yechibdi, chunki, bu boshqotirma unchalik murakkab emas, bor-yo'g'i yettitagina gulning nomini topish kerak ekan-da... Buni ko'rib Navro'zjon yordam berish uchun bulutlar orasida poylab turgan shamol quvonib ketibdi. U hatto Navro'zjonning varragini bulutlardan ham tepaga uchirib chiqarish uchun lunjiga havo to'ldirib olibdi.

Ammo... Navro'zjon ikkinchi boshqotirma-altenvordni yechish uchun toza urinibdi-yu sal bilimi kamlik qilib qolibdi-da. Uboshqotirmadagi «Varrak», «Lola», «Navro'z» va «Bahor» degan so'zlarnigina topa olibdi, xolos. O'ylay-o'ylay Navro'zjonning toza boshi qotibdi.


Bolalar, ehtimol sizlar Navro'zjon yordam berarsizlar? Axir o'zbek xalqining «Birlashgan - o'zar», degan naqlini yaxshi bilasizlar-ku! Hammingiz birga bosh qotirib ko'rsangiz, albatta altenvordni yecha olasizlar. Shunda Navro'zjonning varragi bulutlardan ham teparoqqa parvoz qiladi.

Qani bolalar, Navro'zjon bilan birga varrak uchirishni kim istaydi?

*Muhabbat YO'LDOSHEVA tayyorladi.*



## Bizning to'garak



«Istiqlol umidlari» to'garagimizning har galgi mashg'ulotini biror mavzuga bag'ishlash yaxshi bir an'anaga aylanib qoldi.

Navbatdagi mashg'ulotimizning mavzusi ko'hna va hamisha navqiron bayramimiz Navro'zga bag'ishlandi.

### NAVRO'Z SAYLI

Chiroy ulashib Navro'z,  
Yurtinga kirib keldi.  
Har bir tilda shirin so'z,  
Shabboda g'ir-g'ir yeldi.  
Bobo dehqon umid-la,  
Ekin ekdi yeriga.  
Qut-baraka, omonlik,  
Tiladi o'z eliga.  
Varraklar osmonlarda,  
Xuddi qushdek uchadi.

Qaldirg'ochlar mavj urib,  
Samolarni quchadi.  
Nuroni onaxonlar,  
Dildan duo o'qishar.  
Boychechakni hidlashib,  
Sevinch yoshin to'kishar.

**Dilshod G'OFUROV,**  
Toshkentdagi  
169 - maktabning  
7 - «A» sinf o'quvchisi.

### ONAJON

Uch farzandga qaragan,  
Oq yuvib, oq taragan.  
Omon bo'ling, onajon,  
Eson bo'ling onajon.  
Umringizuzoq bo'lsin,  
Qalbingiz chiroq bo'lsin.  
Katta bo'lsak, biz sizni  
Yelkamizga olamiz.  
Siz bilan davron surib,  
Hur, baxtiyor bo'lamiz.

### BAHOR

Bahor keldi,  
Shamol yeldi,  
Qushlar qo'shiq boshladi.  
Anhorto'ldi,  
G'uncha kuldi,  
Qirlar bazm boshladi.  
Kelavering,  
Yoz, kuz fasli,  
Axir sizga yo'l boshlanar,  
Bahordan asli.

**Nargiza  
TURDIBOYEVA,**  
Toshkent viloyati,  
Bo'stonliq tumani, 6-  
sinf o'quvchisi.



### BAHOR KELSA...

Bahor kelsa bog'larda,  
Qushlar chalar ajib kuy.  
Qaldirg'ochlar loy tashib,  
Quradi bejirim uy.  
Osmonni yashnatadi,  
Yetti rangli kamalak.  
Navro'z, bahor taomi -  
Halim ila sumalak.  
Qizlar o'smalar qo'yib,  
Qo'shiq kuylab, raqs tushar.  
Bolalarning varragi,  
Olis samoni quchar.

**Hilola EGAMBERDIYEVA,**  
Toshkentdagi 312 - maktabning  
7 - «A» sinf o'quvchisi.

### SUMALAK

Qozonlarda sumalak,  
Yonida o'ttiz malak,  
Tovlanadi kamalak,  
Navro'z keldi yurtinga.  
Ko'k somsalar qilindi,  
Yalpiz hidi bilindi,  
O'choqqa o't qalandi,  
Navro'z keldi yurtinga.  
Varrak uchirar Vali,  
Unga ergashar Ali,  
Ularga deymiz: «Balli!»  
Navro'z keldi yurtinga.

**Begzod ERONOV,**  
Navoiy viloyati,  
Nurota tumanidagi A.Navoiy  
jamo'a xo'jaligi.



### YURTIMDA SHODIYONA

Navro'z kelsa olamga,  
Kuy taralar o'lkamda.  
Bolalar sho'x quvnashar,  
Birga quvnap ko'klamda.

Urushganlar yarashar,  
Ginalar bo'lar unut.  
Navro'z - do'stlik bayrami,  
Do'stim, buni yodda tut.

Tandir-tandir ko'k somsa,  
Pishirishar momolar.  
Yelkaga ketmon tashlab,  
Boqqa shoshar bobolar.

Yangilanish bayrami,  
Qalblar quvonchga to'lar.  
Chin dildan niyat qilsak,  
Yilimiz qutlug' bo'lar.

**Nafisa TOSHEVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi Oybek nomidagi  
25 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.



«Mahallamiz obod bo'lsin». Tengdoshingiz  
Dilrabo o'z rasmini shunday nomlabdi.

### «NAVRO'Z» KROSSVORDI


#### ENIGA:

1. Navro'z taomlaridan biri.
5. Oq qog'ozim uchdi ketdi,  
Ichagini cho'zdi ketdi.
7. Navro'z bayramida dasturxoniga tortiladigan taom.
9. Ko'k qozonning burni yo'q.
10. Ayyor hayvon.
12. Sumalak mahsuloti.

#### BO'YIGA:

2. Marjon-marjon yumaloq,  
Yaproqlari shapaloq.  
Qora, qizil, sariq, oq,  
Yeb qo'ymasdan, o'ylab boq.
3. Yetti og'a-inilar,  
Keng samoda quvlashar.  
Rango-rang jilosini,  
Ko'rib ko'zlar quvnashar.
4. Bahor guli.
6. Xushbo'y hidli o'simlik.
8. Sochini yoyib turuvchi daraxtning nomi.
11. Xamirli taom.

**Tuzuvchi:**  
**Dilrabo DO'STQOBILOVA,**  
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi  
118 - maktabning 5 - «A» sinf o'quvchisi.



Ona yurtim - oltin beshigim  
**TONG  
Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
**O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA  
AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feriza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvov SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
«Sharq» nashriyat-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida ofset  
usulida bosildi.  
Korxonalar manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № F- 153  
Gazetani  
Muharrama  
PIRMATOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Ozoda  
TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-63-08  
144-63-75